XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

140502, Самарқанд вилояти, Пастдарғом тумани, Жума шаҳри Хамид Олимжон кўчаси, 15-уй, тел: (8-366) 2319823

2023 - yil 29 - may VI-86-71-7-101-K/23 Pastdarg‘om tumani hokimligi

Pastdarg‘om tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini hatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘rsida”gi 299-sonli qarori, tuman hokimining 2023-yil 27-yanvardagi 11-7-101-F/23-sonli farmoyishi asosida, Respublika Aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi hamda tuzilgan komissiya tomonidan tumanning ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarni xatlovdan o‘tkazish ishlari natijalari ko‘rib chiqish bo‘yicha tuzilgan komissiyaning 2023-yil 11-maydagi 06/03-46-sonli yig‘ilish bayonini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarni hatlovdan o‘tkazish ishlari yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya a’zosi kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i O.Ismatovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Respublika Aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi hamda tuman hokimining 2023-yil 27-yanvardagi 11-7-101-F/23-sonli farmoyishi asosida tuzilgan komissiya tomonidan tumanning ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarni xatlovdan o‘tkazish ishlari natijalari ko‘rib chiqish bo‘yicha tuzilgan komissiyaning 2023-yil 11-maydagi 06/03-46-sonli yig‘ilish bayoniga muvofiq quyidagilar tasdiqlansin.

Pastdarg‘om tuman hududidagi ma’muriy hududiy-birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra umumiy perimetri 927538 metrni, jami yer maydoni 88006 gektarni tashkil qiladi,

Jumladan**:**

- Anhor qishlog‘ining umumiy perimetri 38069 metr, umumiy maydoni 4468 gektar;

- Arabxona qishlog‘ining umumiy perimetri 71299 metr, umumiy maydoni 5381 gektar;

- Beshqahramon qishlog‘ining umumiy perimetri 91230 metr, umumiy maydoni 10807 gektar;

- Bolatosh qishlog‘ining umumiy perimetri 52501 metr, umumiy maydoni 4009 gektar;

- Chimboy qishlog‘ining umumiy perimetri 47501 metr, umumiy maydoni 7809 gektar;

- Dimishqibolo qishlog‘ining umumiy perimetri 79594 metr, umumiy maydoni 5412 gektar;

- Do‘rmontepa qishlog‘ining umumiy perimetri 37540 metr, umumiy maydoni 2867 gektar;

- Go‘zalkent qishlog‘ining umumiy perimetri 78402 metr, umumiy maydoni 10662 gektar;

- Namuna qishlog‘ining umumiy perimetri 34249 metr, umumiy maydoni 1344 gektar;

- Po‘latchi qishlog‘ining umumiy perimetri 108200 metr, umumiy maydoni 8659 gektar;

- Sanchiqul qishlog‘ining umumiy perimetri 97496 metr, umumiy maydoni 12695 gektar;

- Saribosh qishlog‘ining umumiy perimetri 59116 metr, umumiy maydoni 4987 gektar;

- Torariq qishlog‘ining umumiy perimetri 56684 metr, umumiy maydoni 6992 gektar;

- Juma shahar (tuman markazi)ning umumiy perimetri 12793 metr, umumiy maydoni 634 gektar;

- Ag‘ron shaharchasining umumiy perimetri 5791 metr, umumiy maydoni 90 gektar;

- Balxiyon shaharchasining umumiy perimetri 4187 metr, umumiy maydoni 90 gektar;

- Charxin shaharchasining umumiy perimetri 5357 metr, umumiy maydoni 115 gektar;

- Chortut shaharchasining umumiy perimetri 2811 metr, umumiy maydoni 34 gektar;

- Go‘zalkent shaharchasining umumiy perimetri 8760 metr, umumiy maydoni 274 gektar;

- Hindiboyi shaharchasining umumiy perimetri 6725 metr, umumiy maydoni 135 gektar;

- Iskandari shaharchasining umumiy perimetri 8245 metr, umumiy maydoni 136 gektar;

- Jag‘alboyli shaharchasining umumiy perimetri 5200 metr, umumiy maydoni 106 gektar;

- Mehnat shaharchasining umumiy perimetri 7063 metr, umumiy maydoni 151 gektar;

- O‘rta Charxin shaharchasining umumiy perimetri 3287 metr, umumiy maydoni 35 gektar;

- Saribosh shaharchasining umumiy perimetri 5438 metr, umumiy maydoni 113 gektar ekanligi aniqlandi.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (O.Sonniboyev) va “Past Darg‘om haqiqati” (B.Shukurov)larga mazkur qarorni gazeta hamda tuman hokimligining rasmiy-veb saytida yoritish tavsiya etilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Xolmuradov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Xxx A. N.**

Xalq deputatlari Pastdarg‘om
tuman Kengashining
2023 yil 29 maydagi
VI-86-71-7-101-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Pastdarg’om tumani shahar, shaharcha hamda qishloqlarining chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Shahar va shaharchalar hamda qishloqlar nomi	Chegara uzunligi *(metr)*	Yer maydoni *(gektar)*
1	Anhor qishlog’1	38069	4468
2	Arabxona qishlog’i	71299	5381
3	Beshqahramon qishlog’i	91230	10807
4	Bolatosh qishlog’i	52501	4009
5	Chimboy qishlog’i	47501	7809
6	Dimishqibolo qishlog’i	79594	5412
7	Do‘rmontepa qishlog’i	37540	2867
8	Go‘zalkent qishlog’i	78402	10662
9	Namuna qishlog’i	34249	1344
10	Po‘latchi qishlog’i	108200	8659
11	Sanchiqul qishlog’i	97496	12695
12	Saribosh qishlog’i	59116	4987
13	Torariq qishlog’i	56684	6992
14	Juma shahar	12793	634
15	Ag‘ron shaharcha	5791	90
16	Balxiyon shaharcha	4187	90
17	Charxin shaharcha	5357	115
18	Chortut shaharcha	2811	34
19	Go‘zalkent shaharcha	8760	274
20	Hindiboyi shaharcha	6725	135
21	Iskandari shaharcha	8245	136
22	Jag‘alboyli shaharcha	5200	106
23	Mehnat shaharcha	7063	151
24	O‘rta Charxin shaharcha	3287	35

25	Saribosh shaharcha	5438	113
	Jami	**927538**	**88006**

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman
Kengashining
2023 yil 29 maydagi
VI-86-71-7-101-K/23-son qaroriga
2-ilova

2-ilova

Samarqand viloyati Pastdargom tumanining ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari SXEMASI

